



**QO‘CHQOR NORQOBIL HIKOYALARIDA IJTIMOIIY
MUAMMOLARNING BADIYY TALQINI (“YER YORILMADI” HIKOYASI
MISOLIDA)**

Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti)

Annotatsiya. Maqolada Qo‘chqor Norqobilning “Yer yorilmadi” hikoyasida jamiyat va shaxs munosabatlarning badiiy talqini muammosi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Hikoya, ijtimoiy muammolar talqini, badiiy obraz, xarakter, konflikt, badiiy mahorat.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri bo‘lgan Qo‘chqor Norqobil ijodida jamiyat hayoti, ijtimoiy munosabatlar, ma‘naviy qadriyatlar, milliy mentalitet va inson ruhiyati bilan bog‘liq masalalar muhim o‘rin egallaydi. Adib o‘z asarlarida zamondoshlar hayotini, ularning dunyoqarashi, qiziqishlari, ma‘naviy-axloqiy fazilatlari hamda xarakteridagi turli nuqsonlarni sinchkovlik bilan kuzatib, ularni badiiy umumlashtirish asosida talqin etadi. Yozuvchining nasriy asarlarida ijtimoiy muhit va inson taqdiri o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, jamiyatning shaxs kamolotiga ta’siri hamda davr muammolarining badiiy ifodasi o‘ziga xos uslub va tasvir vositalari orqali yoritiladi.

Qo‘chqor Norqobilning “Yer yorilmadi” hikoyasida tasvirlangan ijtimoiy muhit mansabparastlik, amal va vakolatdan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanish, xushomadgo‘ylik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar bilan xarakterlanadi. Muallif mazkur muammolarni qahramonlar xarakteri, ularning o‘zaro munosabatlari va ruhiy kechinmalari orqali ochib berib, jamiyatdagi ma‘naviy inqirozning inson tafakkuri va xulq-atvoriga ta’sirini yoritadi. Hikoyada ayrim shaxslarning manfaatparastlik yo‘lini tanlashi hamda boshqalarning insoniylik va adolat tamoyillariga sodiq qolishga intilishi jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarda muallif ijtimoiy muhitning mohiyatini qahramonlar xarakteri va ularning o‘zaro munosabatlari vositasida ochib berishga alohida ahamiyat qaratadi.

Hikoyadagi markaziy obrazlardan biri bo‘lgan Toyqulov jamiyatdagi xushomadgo‘ylik va manfaatparastlik illatlarining badiiy timsoli sifatida gavdalanadi. Toyqulov xatti-harakatlarini nafs va ilinj asosiga qaratgan inson timsolidir. U o‘z xizmat vazifasini asosan mansabdorlarga xushomad qilish, zaiflardan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish, vaziyatga qarab og‘ishishga yo‘naltirgan. U insonlarga ularning shaxsiy fazilatlari yoki insoniy qadr-qimmatiga qarab emas, balki jamiyatdagi mavqei va foydasiga qarab munosabat bildiradi. Shuning uchun ham u Shermatning

samimiyligi va soddaligidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanadi. Odil To'rayevich lavozimdaligida unga nisbatan ichki nafratini yashirgan holda munosabatda bo'lsa, rahbarning ishdan ketgani haqidagi xabarni eshitgach, uni keskin tanqid qiladi. Biroq keyinchalik Odil To'rayevich yuqori lavozimga tayinlanganini bilgach, birdaniga fikrini o'zgartirib, uni maqtashga kirishadi. Bu holat qahramon xarakteridagi ikkiyuzlamachilikni yaqqol namoyon etadi. Muallif qahramon xarakterini bevosita tavsiflash bilan cheklanmay, uning xatti-harakatlari tasviri orqali ham ochib beradi. Jumladan, Toyqulovning Shermatga nisbatan soxta mehribonlik ko'rsatishi, undan manfaat ko'rishi, keyinchalik esa vaziyatga qarab fikrini o'zgartirishi uning ma'naviy qiyofasini namoyon etadi. Ayniqsa, Odil To'rayevich haqida avval salbiy fikr bildirib, keyinchalik: "Siz chin ma'noda insonsiz, chin ma'noda rahbarsiz"¹, deya maqtovlari yog'dirishi qahramon tabiatidagi ikkiyuzlamachilik belgilarini yorqin namoyon etadi.

Asarning hikoyachisi Toyqulovga zid o'laroq vijdonli kishi obrazidir. U Toyqulovning harakatlaridan norozi bo'ladi, u bilan murosasiz holatda ichki norozilikni va ruhiy iztirobni boshdan kechiradi. Butun xatti-harakatida unga nisbatan e'tirozini sezdirib turadi. Hikoyada uning "Haqiqat bor!"² deb baqirishi shaxsning jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi ma'naviy isyoni bo'lib jaranglaydi. Bu nafaqat hikoyachi ruhiyatining ifodasi, balki muallifning jamiyatdagi adolat va haqiqatga bo'lgan ishonchining badiiy ifodasidir. Yozuvchi hikoyachi tasvirida psixologik tasvir vositalaridan foydalanishga e'tibor qaratadi. Muallif uning ichki kechinmalarini nozik detallarda aks ettiradi. Xususan, hikoyachi Toyqulovning asl qiyofasini anglagan sari unda nafrat va norozilik hissi kuchayib boradi. Uning: "Yonimdagi badbin kimsani urib-tepib, ezg'ilab tashlagim kelayapti"³, degan ichki monologi qahramon ruhiyatidagi keskin ziddiyatlarni ifodalaydi. Shu tariqa yozuvchi jamiyatdagi salbiy illatlarga nisbatan inson qalbida tug'iladigan ma'naviy qarshilikni psixologik jihatdan asoslaydi.

Shermat hikoyada pok niyatli, sodd, ishonuvchan va mehnatkash inson timsoli sifatida tasvirlangan. Biroq hikoyada uning samimiyligi suiste'mol qilinganligi ko'rsatiladi. Muallif bu obraz orqali jamiyatda sodd, samimiy insonlarning ko'pincha manfaatparast shaxslar qurboniga aylanishini dalillaydi.

Odil To'rayevich asarda bevosita ko'p ko'rinmasa-da, muallif ushbu obraz orqali jamiyat taraqqiyoti uchun halol va mas'uliyatli rahbarlarning naqadar muhimligi, haqiqiy rahbar qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligi haqidagi qarashlarini ilgari surgan deyish mumkin.

¹ Norqobil Q. Yer yorilmadi. / Internet sayti: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/qochqor-norqobil/qochqor-norqobil-er-yorilmadi-hikoya/>

² Norqobil Q. Yer yorilmadi. / Internet sayti: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/qochqor-norqobil/qochqor-norqobil-er-yorilmadi-hikoya/>

³ Norqobil Q. Yer yorilmadi. / Internet sayti: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/qochqor-norqobil/qochqor-norqobil-er-yorilmadi-hikoya/>





Asardagi yoʻlda uchragan chol obrazi voqealarning maʼrifiy, falsafiy qatlamini kuchaytiradi. Uning “Yer olmadekkina” degan fikri insonlar taqdiri va hayot yoʻllarining oʻzaro bogʻliqligini anglatadi. Muallif shu fikr orqali kishilarning har bir harakati maʼnaviy javobgarlik bilan bogʻliq ekanligini taʼkidlashga xizmat qiladi. Toyqulov dastlab qariyaga befarq munosabat bildiradi, uning yonidan toʻxtamasdan oʻtib ketadi. Bu holat qahramonning maʼnaviy dunyosi va insoniy qadriyatlarga boʻlgan munosabatini koʻrsatadi. Hikoyachi qahramon esa aksincha, qariyaga yordam berishni taklif qiladi. Demak, muallif birgina epizod orqali ikki xil maʼnaviy olamdagi kishilarni qarama-qarshi qoʻyadi: biri insoniylik va mehr-oqibatni, ikkinchisi esa manfaatparastlik va loqaydlikni ifodalaydi. Cholning asar yakunida yana paydo boʻlishi tasodif emas, balki yozuvchining badiiy niyatidan kelib chiqqan yechimdir. U Odil Toʻrayevichning otasi ekanligi maʼlum boʻladi. Asar davomida adolat, halollik va insoniylik timsoli sifatida tasvirlangan Odil Toʻrayevichning otasi ham xuddi shu qadriyatlarning tashuvchisi sifatida namoyon boʻladi. Otaxon obrazi voqealar rivojiga bevosita taʼsir koʻrsatmasa-da, asarning falsafiy mazmunini ochish, qahramonlarning axloqiy qiyofasini sinovdan oʻtkazish va muallifning gʻoyaviy yondashuvini ifodalashda muhim badiiy vazifani bajaradi.

Hikoya soʻngida yozuvchi Toyqulovning maʼnaviy tanazzulini koʻrsatish asosida nohaqlikning, haqsizlik va zoʻravonlikning oqibatini badiiy jihatdan asoslashga erishadi, shu orqali adabiyotning tarbiyaviy vazifasi amalga oshadi.

Muallif qahramonlar oʻrtasidagi munosabatlar orqali ijtimoiy hayot va axloqiy munosabatlar bilan bogʻliq muammolarni badiiy tahlil etishga erishgan. Asarda adib jamiyatning tanazzuliga sabab boʻluvchi kamchiliklar sifatida mansabparastlik va xushomadgoʻylik, ikkiyuzlamachilik, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlik, maʼnaviy zaiflik masalalarini koʻtaradi va insonlar orasidan ana shunday illatlarga dadil qarshilik koʻrsatuvchi, haqiqat tantanasiga ishonuvchi kishilarning chiqishini, ular jamiyatni oʻzgartirishga qodir ekanligini, haqiqatning mavjudligi, ammo uni jamiyat kishilari tomonidan anglanishi va dadillik bilan himoya qilishini kerakligini asoslab berishni maqsad qiladi.

Asar jamiyat va inson munosabatlari bilan bogʻliq dolzarb ijtimoiy-maʼnaviy muammolarni badiiy jihatdan teran yoritib bergani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Unda insonning ijtimoiy muhit bilan oʻzaro aloqasi, jamiyatda uchraydigan maʼnaviy-axloqiy illatlar, mansabparastlik, manfaatparastlik, ikkiyuzlamachilik kabi salbiy holatlarning shaxs ruhiyati va dunyoqarashiga taʼsiri badiiy tahlil etilgan. Muallif qahramonlar xarakteri va ularning oʻzaro munosabatlari orqali insoniylik, adolat, halollik va vijdon kabi umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni masalasiga eʼtibor qaratadi. Shu jihatdan asar nafaqat muayyan davr ijtimoiy muhitini aks ettirishi, balki bugungi kun uchun ham dolzarb boʻlgan maʼnaviy-axloqiy muammolarni koʻtarib chiqishi bilan ahamiyatlidir. Asarda ilgari surilgan gʻoyalar





o'quvchini jamiyat va shaxs munosabatlari haqida mushohada yuritishga, insoniy fazilatlarning mohiyatini chuqurroq anglashga undaydi.

Adabiyotlar.

1. Norqobil Q. Yer yorilmadi. / Internet sayti: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/qochqor-norqobil/qochqor-norqobil-er-yorilmadi-hikoya/>

1. Rajabova, R. Z. EXPRESSIVENESS OF GENRE CHARACTERS INHERENT IN FOLK RIDDLES IN LITERARY RIDDLES.
2. Zaripovich, R. D., Matchonboyevich, S. S. A., Aminbayevna, R. Z. S., & Zaripovna, R. R. N. (2025). Belief Systems of the Uzbek People: Shamans and Bakshis. *Journal of Chemical Health Risks*, 15(6), 3512.
3. Раджабова, Р. З. (2020). PROSE TALES AND THE INFLUENCE OF FOLK TALES ON THEIR WORK. *ФИЛОЛОГИЯ, ЛИНГВИСТИКА, ЖУРНАЛИСТИКА: АКТУАЛЬНЫЕ*, 9.
4. Rajabova, R. N. Z. (2020). A LITERARY RIDDLE FROM A FOLK RIDDLE. In *European Scientific Conference* (pp. 139-141).
5. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
6. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
7. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
8. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
9. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.
10. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
11. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
12. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
13. Shokhsanam D. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2016. – Т. 4. – №. 5. – С. 33-34.
14. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
15. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.
16. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА "ОЛИСДАГИ





- УРУШНИНГ АКС-САДОСИ”(«ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ») //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
17. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
18. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
19. Davronova S., Kandimova I. CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 30-34.
20. G'aybulloevna D. S. TILAK JO 'RA IJODIDA BADIY IFODA VA MAHORAT //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 212-218.
21. Davronova, S. (2024, May). TILAK JO 'RA SHE'RIYTINING O'ZIGA XOSLIGI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 4, pp. 181-191).
22. Davronova S. ABDUQAYUM YO 'LDOSH HIKOYALARIDA JAMIYAT VA INSON MUNOSABATLARI TALQINI //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 405-411.
23. G'aybulloevna D. S. ERKIN VOHIDOV IJODIDA MILLIYLIK IFODASI //Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology. – 2025. – Т. 2. – №. 5. – С. 96-101.
24. G'aybulloevna, Davronova Shohsanam. "ABDULLA O'RIPOV SHE'RIYATIDA TABIAT VA INSONIY TUYG 'ULAR TALQINI." *Economics, management, and digital innovation in education: contemporary trends and approaches* 2.11 (2025): 87-94.
25. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016.–2016. – Т. 18.
26. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
27. DAVRONOVA S. TARIHI ROMANDA MUTASAVVIF BILGIN SIMASI //DIL VE EDEBIYAT ARASTIRMALARI I. – С. 108.
28. DAVRONOVA S. ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA SHOIRALAR IJODIGA MUNOSABAT IFODASI //FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA. – 2025. – №. 5. – С. 70.
29. Saidova, Nodira Mustakimovna. "G'AZAL TAHLILIGA GERMENEVTIK YONDASHUV." *Scientific progress* 4.2 (2023): 324-327.
30. Saidova, Nargiza Makhmudovna. "Features of the Development of the Saudi Realistic Story in the Second Half of the Twentieth Century." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 8.4 (2021): 360-370.
31. Saidova, Nodira. "Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar." *Science and Education* 3.2 (2022): 562-567.
32. Nodira, Saidova. "PEOPLE'S ORAL CREATIVITY-INVALUABLE WEALTH." *Archive of Conferences*. 2021.
33. Nodira, Saidova. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKURIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING O'RNI." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 298-299.





34. Nodira, Saidova. "NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA." *Innovations in Technology and Science Education* 2.8 (2023): 681-689.
35. Mustakimovna, Saidova Nodira. "Immanent and contextual text analysis immanent and contextual out-of-class based approach designing literature lessons." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 188-192.
36. Mustakimovna, Saidova Nodira. "A HISTORY OF IMMANENT AND CONTEXTUAL APPROACHES." *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.12 (2022): 34-38.
37. Mustakimovna, Saidova Nodira. "MATN TAHLILIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'RNI." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 92-96.
38. Mustakimovna, Saidova Nodira. "SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 84-86.
39. Mustakimovna, Saidova Nodira. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI." (2022).
40. Mustakimovna, Saidova Nodira. "G'AFUR G'ULOM ASARLARINI IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARI ASOSIDA TAHLIL QILISH: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.025 Saidova Nodira Mustakimovna Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 9 (2022): 177-182.
41. Mustakimovna, SAIDOVA Nodira. "IMMANENT VA KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH JARAYONINING MAZMUNI." *EDAGOGIK AHORAT*: 94.
42. Саидова, Нодира Мустакимовна. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI: Saidova Nodira Mustakimovna, Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 5 (2022): 141-145.
43. H. Safarova, A crow, an owl, a sheep, a bird turned your flowers...:(On the example of the work of the poet Samandar Vahidov)Center for Scientific Publications (bukhdu. en).
44. H. Safarova, Theformation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).8 (2021)
45. H. Safarova, Navoi does not need a soul, but. Center for Scientific Publications (bukhdu. en).3 (2021) 7. A. Hamroyev, H. Jumayeva, E3S Web of Conferences 420. 10007 (2023)
46. H Safarova. The agony of missing the sun and heat. Center for Scientific Publications (bukhdu. en) 8(8) (2021)



47. H.O. Safarova. Parents double wings to the child. Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2021)
48. Okhunjonovna, S. H., Bakoevna, R. M., & Kadirovna, A. Z. (2023). Travelogues in The Literature of Bukhara at The End of The 19th and The Beginning of The 20th Century. Res Militaris. Social Science Journal/Res Militaris, 13(1), 2023-258.
49. Rajabova, M., Safarova, H., Amonova, Z., Shirinova, M., & Ibotova, M. (2024). The world of subjects in "Nazm Ul-Javahir" by Alisher Navai. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05023). EDP Sciences.
50. Safarova, H., Rajabova, M., Amonova, Z., Shirinova, M., & Maxmudova, R. (2024). Activity of Cholpan in the literary environment of Bukhara. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05036). EDP Sciences.
51. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
52. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
53. Rajabova, M., Amonova, Z., Qodirova, N., Rajabova, R., & Ibotova, M. (2024). Interpretations on ecological problems and their solution in the works of Abu Ali ibn Sino. In E3S Web of Conferences (Vol. 587, p. 02019). EDP Sciences.